



PILGRIMAGE TOURISM: A STUDY OF KARASKAN SACRED PLACES

Maftuna Mirzayeva

PhD student, Al-Biruni institute of Oriental Studies,
Uzbekistan Academy of Sciences.

Tashken, Uzbekistan

E-mail manzili: mirzayevamaftuna95@gmail.com.

ABOUT ARTICLE

Key words: Namangan, Chortoq, sacred places, Sultan Sayyid, Alkom Acha, Tolmozor, Karaskan sayyids, local traditions.

Received: 27.02.25

Accepted: 01.03.25

Published: 03.03.25

Abstract: This article explores the sacred Islamic places in Namangan region, particularly in Chortoq district, focusing on their historical significance and religious role. The shrines of Sultan Sayyid Awliya, Alkom Acha, and Tolmozor are examined in detail. The research includes historical and archaeological data about these shrines, analyzing their importance in the local religious practices and social dynamics. This study also addresses the religious and social importance of these shrines, their historical roots, and the traditions and offerings associated with them.

ZIYORAT TURIZMI: KOROSKON ZIYRATGOHLARINI O'RGANISH

Maftuna Mirzayeva

O'zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik
instituti tayanch doktoranti

Toshkent, O'zbekiston

E-mail manzili: mirzayevamaftuna95@gmail.com

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Namangan, Chortoq, ziyoratgoh, Sulton Sayyid, Alkom acha, Tolmozor, Koroskon sayyidlari, mahalliy an'analar.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Namangan viloyati, xususan Chortoq tumanidagi muqaddas ziyoratgohlar va ularning tarixiy ahamiyati yoritilgan. Asosan Sulton Sayyid avliyo, Alkom acha va Tolmozor ziyorat-gohlariga kabi muqaddas joylariga e'tibor qaratilgan. Tadqiqotlar davomida mazkur ziyoratgohlar bilan bog'liq og'zaki va yozma ma'lumotlar to'plangan, ularning xalq orasidagi o'rni va diniy merosi tahlil qilingan. Ushbu

maqolada mazkur hududdagi ziyoratgohlarning diniy va ijtimoiy ahamiyati, ularning tarixiy ildizlari, shuningdek, bu joylarga qilingan nazrlar va ular atrofidagi urf-odatlar o'rganilgan.

ТУРИЗМ ПАЛОМНИЧЕСТВА: ИЗУЧЕНИЕ СВЯТЫХ МЕСТ КОРОСКОН

Мафтуна Мирзаева

Докторант, института востоковедения имени Абу Райхона Беруни,

Академия наук Узбекистана.

Ташкент, Узбекистан

E-mail manzili: mirzayevamaftuna95@gmail.com

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Наманган, Чортоқ, паломнические места, Султон Саид, Алком ача, Толмозор, сииды Короскана, местные традиции.

Аннотация: В статье рассматриваются священные исламские места Наманганской области, в частности, Чортокского района, с акцентом на их историческое значение и религиозную роль. Подробно изучены мавзолеи Султона Саида Аулия, Алком Ача и Толмозор. Исследование включает исторические и археологические данные о этих святилищах, анализируя их значение в местных религиозных практиках и социальных процессах. В статье также рассматриваются религиозное и социальное значение этих святилищ, их исторические корни, а также связанные с ними традиции и обряды.

Kirish

O'zbekiston hududida ziyoratgohlar muhim diniy va madaniy obidalar sifatida qadimdan katta ahamiyatga ega bo'lib kelgan. Islom dinining tarqalishi va rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan ziyoratgohlar xalqimizning diniy hayoti, an'analar va urf-odatlarining bir qismiga aylangan. Namangan viloyati ham ziyorat turizmi nuqtai nazaridan diqqatga sazovor hududlardan biri hisoblanadi. Ushbu viloyatda, xususan, Chortoq tumanida joylashgan ziyoratgohlar o'ziga xos tarixiy va madaniy qadriyatlarni o'zida mujassam etgan.

Markaziy Osiyodagi muqaddas islomiy joylar diniy, madaniy va tarixiy ahamiyati tufayli keng ilmiy izlanishlarga sabab bo'lgan. Ko'plab olimlar ushbu muqaddas maskanlarni din, tarixiy rivojlanish va ijtimoiy-siyosiy jihatlaridan o'rgangan. Ushbu mavzuga oid adabiyotlar tahlili muqaddas joylar, islomiy amaliyotlar va mahalliy an'analarning o'zaro ta'sirini, shuningdek, sovet ittifoqidan keyingi davrida bu maskanlarning qayta tiklanishini yoritishga qaratilgan.

A. Muminovning Markaziy Osiyodagi muqaddas islomiy joylarning tasnifi va tarixiy konteksti bo'yicha olib borgan tadqiqotlari ushbu sohadagi muhim hissa hisoblanadi. Muminov ushbu joylarni turli guruhlarga ajratgan holda, ularning diniy va madaniy ahamiyatini kengroq nuqtai nazardan ko'rib chiqadi. Uning ishi nafaqat muqaddas joylar, balki ularning musulmon jamoalari uchun ramziy o'rni haqida ham chuqur tasavvur beradi. Ushbu tasniflash tizimi muqaddas maskanlarning islomiy amaliyotlar, jamoaviy identifikatsiya va tarixiy xotirada qanday ahamiyat kasb etishini chuqurroq anglash imkonini beradi (Muminov, 2013, p. 15).

Shuningdek, A. Malikovning Markaziy Osiyodagi muqaddas nasablar bo'yicha olib borgan tadqiqotlari ushbu sohadagi o'ziga xos jihatlarni ochib beradi. Malikovning tadqiqotlari muqaddas nasablar (sakral oilalari)ning diniy va ijtimoiy ierarxiyani shakllantirishdagi rolini o'rganishga qaratilgan. Uning izlanishlari mahalliy an'analar va umumislomiy amaliyotlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ko'rsatadi (Malikov, 2021). Bu tadqiqot muqaddas joylar geografik joylashuvdan tashqariga chiqib, butun mintaqaviy diniy identifikatsiyaga qanday ta'sir ko'rsatishini ochib beradi

K. Kalanov va A. Alonso tomonidan olib borilgan Islom va Markaziy Osiyodagi muqaddas joylar haqidagi tadqiqotlar islomiy amaliyotlar va mahalliy an'analar o'rtasidagi aloqani yoritadi. Tadqiqotlarga ko'ra, Markaziy Osiyoda islomning keng qamrovli qoidalari qabul qilinishi bilan birga, mahalliy an'ana va urf-odatlar diniy amaliyotlarni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu "an'anaviy islom" va rasmiy diniy doktrinalar o'rtasidagi bog'liqlik Markaziy Osiyoda islomning turli xil shakllarini tushunishga yordam beradi.

I. Lipovskining Markaziy Osiyodagi islomning qayta uyg'onishi haqidagi tadqiqotlari ham Sovet davridan keyin islomiy muqaddas joylarga bo'lgan ziyoratlar diniy va madaniy merosni qayta tiklashning ramziga aylanganini tasvirlaydi (Lypovsky, 1996).

Shuningdek, D.M. Abramson va E.E. Karimovning O'zbekistonda davlat va muqaddas joylar o'rtasidagi munosabatlarini tahlil qiluvchi tadqiqotlari diniy joylar va siyosat o'rtasidagi bog'liqlikni yoritadi (Abramson&Karimov, 2013, p. 297). Bu tadqiqot davlat va muqaddas qadamjolar o'rtasidagi munosabatlarni o'rganadi.

D. DeWeese tomonidan olib borilgan tadqiqotlar esa avliyolar va ziyoratgohlar bilan bog'liq tarixiy afsonalar va rivoyatlar orqali Markaziy Osiyodagi muqaddas joylarning tarixiy ahamiyatini yoritadi (DeWeese, 2002). Ushbu tadqiqotlar ziyoratgohlar nafaqat diniy an'analarni, balki mintaqaviy tarix va jamoaviy identifikatsiyani ham saqlab qolishda qanday rol o'ynashini ko'rsatadi.

Zamonaviy davrda muqaddas joylarning o'ziga xos jihatlari ham ziyorat va turizm sohasida keng o'rganilgan. E.E. Karimov va D. Liutikasning Markaziy Osiyodagi zamonaviy

ziyosat amaliyotlariga oid tadqiqotlari esa ushbu amaliyotlarning zamonaviy sharoitlarga moslashgan holda diniy ahamiyatini saqlab qolganini ko'rsatadi (Karimov&Liutikas, 2021).

Namangan viloyati va unga yaqin hududlardagi ziyoratgohlar ham diqqatga sazovor bo'lib, bu borada ko'plab tadqiqotlar olib borilgan. Masalan, "Muslim Saints and Mausoleums in Central Asia" tadqiqotida Namangan va boshqa hududlar ziyoratgohlarining musulmon tarixidagi o'rni va ularning ziyoratchilar uchun ahamiyati tahlil qilingan (Muminov, 2013). Shuningdek, "Eleven Ahmad Pilgrimage" va "Sacralization of Burial Places in Ferghana" tadqiqotlari ham Namangandagi muqaddas joylar va ularning diniy ahamiyatini o'rganishga bag'ishlangan (Juraev&Masalieva, 2020).

O'zbekiston ziyoratgohlari va qadamjolari turkumini ham alohida ta'kidlash kerak. Ushbu turkumning ikkinchi kitobi aynan Andijon va Namangan viloyatlariga bag'ishlangan (Eraliyev, Ostonaqulov & Abdulahatov, 2014). Ushbu tadqiqotlar mahalliy va diniy merosning qayta tiklanishi va ularning zamonaviy jamiyatda qanday ahamiyat kasb etishini yoritadi.

Shunday qilib, bu adabiyotlar va tadqiqotlar Namangan viloyati va Markaziy Osiyodagi muqaddas islomiy joylarning tarixiy, diniy va madaniy jihatlariga oid chuqur bilimlarni taqdim etadi. Ushbu joylarning diniy hayotdagi o'rni va ularning islomiy amaliyotlar bilan o'zaro ta'siri yoritilgan bo'lib, ular xalqning diniy va tarixiy merosini saqlab qolishda qanday rol o'ynaganini ko'rsatadi.

Biz esa ushbu tadqiqotda Namangan viloyati Chortoq tumanidagi Koroskon shaharchasidagi ziyoratgohlar tadqiqotiga e'tibor qaratdik. Yuqoridagi ishlar tahlili davomida Farg'ona vodiysi, xususan, Namangan viloyatidagi ziyoratgohlar bo'yicha ko'pgina tadqiqotlar amalga oshirilganligi, ularni diniy, ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi o'rni, turizmdagi ahamiyati o'rganilganligini ko'rib chiqdik. Lekin Koroskon shaharchasidagi e'tiborga molik ziyoratgohlar to'g'risida tadqiqotlarda ayrim ma'lumotlar-gina uchraydi. Ushbu maqolada yuqoridagi ishlardagi ma'lumotlar va ularda qo'llanilgan metodlardan foydalangan holda, ushbu hududdagi Koroskon sayyidlari bilan bog'liq Sulton Sayyid avliyo, Alkom acha va Tolmozor ziyoratgohlari haqida ma'lumotlarni tahlil etamiz. Shuni alohida ta'kidlash joizki, ushbu ziyoratgohlar borasida yozma manbalarda ma'lumotlar juda oz. Shuning uchun Koroskonga amalga oshirilgan ilmiy safarimiz davomida amalga oshirilgan dala tadqiqotlarimiz davomida og'zaki tarix metodi orqali to'plangan ma'lumotlar va arxiv hujjatlari ishga jalb ketilgan holda tadqiqot amalga oshirildi. Ishni tadqiqotlar tahlili qismidan so'ng dastlab Koroskon tarixi, Koroskon sayyidlari va ularning oilaviy hujjatlari hamda ziyoratgohlar borasidagi qismlarga bo'lingan holda bayon etamiz.

Koroskon tarixi

Chortoq tumanidagi ziyoratgohlar, xususan, Namangan viloyati tarixida alohida o'rin tutadi. Ushbu tuman ziyoratgohlari orasida tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan joylar ko'p bo'lib, ular nafaqat diniy, balki tarixiy-madaniy obidalar sifatida ham e'tirof etiladi. Shu bois, Namangan viloyatidagi va ayniqsa Chortoq tumanidagi ziyoratgohlarni tadqiq etish O'zbekiston tarixshunosligi uchun dolzarb mavzulardan biri bo'lib qolmoqda. Mazkur ziyoratgohlar nafaqat diniy meros sifatida, balki tarixiy va madaniy obidalar sifatida ham xalqimiz uchun ahamiyatli ekanligini ta'kidlab o'tish lozim.

Koroskon shaharchasi Namangan viloyati Chortoq tumanida joylashgan. Chortoq tumani g'arbdan Yangiqo'rg'on, janubiy, janubi-sharqdan Uychi tumanlari, shimoliy va sharqda Qirg'iziston Respublikasi bilan chegaradosh. Koroskon qishlog'i esa tumanning janubiy qismida joylashgan bo'lib, Uychi tumani bilan chegaradosh. Chortoq tumani 1950 yilda tashkil etilgan bo'lib, Koroskon qishlog'i ham shu tuman tarkibida bo'lgan. 2009 yilda shaharcha maqomi berilgan. Aholisi 40 mingdan ortiq. Quyida qishloq tarixi, toponim etimologiyasi xususida batafsil to'xtalamiz.

Mazkur qishloqda o'rta asrlar davomida Farg'ona vodiysidagi o'troq aholi yashab kelgan. Koroskon asosan tekis, serunum yerga joylashganligi sababli ekin yeri juda qadrlil va qimmatbaho hisoblangan. Aholining ko'p qismi hunarmandchilik va tijorat ishlari bilan shug'ullangan. Qishloqning asosiy sug'orish manbayi hisoblangan Chortoqsoy suvi Koroskongacha yetarli darajada oqib kelmagan yillari aholining kambag'al qismi qiynalgan. XIX asr oxirida ayniqsa Chortoqsoy havzasida aholining ko'payib ketishi natijasida deyarli bir xil hajmda keladigan suv Koroskon aholisini to'laligicha ta'minlay olmagan. Oqibatda bog'lar soni kamayib, tashlandiq holga kelib qoladi. O'sha davrdagi bosh mirob Mullo Tolib haqida ko'plab satirik qo'shiqlar yaratilgan. Mana shunday holat shoir Muxtorxonning "Kelmas Koroskonning suvi" dostonida o'z ifodasini topgan:

Mirobboshi bo'ldi Tolib,

Pulni olib, yonga solib,

Ariqlari qurib qolib,

Kelmas Koroskonning suvi (Safarov, 2010, p. 48).

Koroskon sayyidlar va oilaviy hujjatlar

Koroskon sayyidlari uch yuz yillik oilaviy hujjatlari saqlanib qolgan kamdan kam xonadonlardan biri hisoblanadi. Bu xonadonning bizga ma'lum dastlabki vakili, Sulton Sayyid avliyo, mozori Koroskon qishlog'ida joylashgan bo'lib, ushbu sayyidlar xonadoni ham qishloqqa nisbat berilib Koroskon sayyidlari deb nomlanadi. Hujjatlar orqali shuni ayta olamizki, XVI

asrdan boshlab 1875-yilgacha suyurg'ol va vaqf imtiyozlaridan foydalanib kelishgan (Yorliqlar to'plami).


Xonadonning yorliq berilgan ilk vakili Sayyid Fozil Ali 919/1513-928/1521-1522 yillar oralig'ida imtiyozga ega bo'lib kelgan. Ushbu yorliqlar Sulton Saidxon tomonidan 919/1513 yilda va Abulxayr Sevinch Sulton tomonidan 928/1521-22 yilda sayyid Fozil Aliga berilgan (O'zMA, 26-y.j.). Saqlangan hujjatlarning datslabkisi shayboniylar davri bilan chegaralanyapti.

Lekin yorliqlarda sayyid Fozil Ali ota-bobolaridan tortib Karaskan mavzei zodagonlarining peshqadami va tarxoni mutlaqul inon bo'lganligi, uning qo'lida sobiq sultonlarning va podshohlarning bu mazmundan xabar beruvchi va buni ifodalovchi nishoni borligi ta'kidlangan (Yorliqlar to'plami, 82-h.). Eng so'ngi imtiyozga ega bo'lgan vakil esa Sayyid Jaloliddinxo'ja nomiga 13 ta yorliq hamda hokimlar va amlokdorlar tomonidan berilgan 23 ta pattalar mavjud bo'lib, yorliqlar 1226-1292/1811-1875 yillar oralig'ida berilgan (Yorliqlar to'plami, 1, 20-h.). Sulton Sayyid avliyo mozoriga berilgan vaqf mulklari mutavallisi sifatida uning avlodlari hisoblangan Koroskon sayyidlari tayinlangan. To'rt mulk, ya'ni Koroskon, Qizilrabot mavzelari, Adak va Govxona ekin yerlari berilgan. Ayni vaqtda sayyidlar ma'lum bir soliq turlaridan ozod ham etilgan. Soliqlardan to'liq ozod etilgan sayyidlar marfu'l qalam va muof deb atalgan.

Koroskon sayyidlariga tegishli hujjatlarning O'zbekiston Milliy Arxivi fondida saqlanayotgan qismi asl hamda O'zRFA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti fondidagi "Yorliqlar to'plami" nomi ostidagi hujjatlar ko'chirilgan nusxa bo'lib, turkiy va forsiy tillarda bitilgan yorliq tipidagi hujjatlardan iborat. Shuniq ayd etishimiz joizki, hujjatlar orasida ularga tegishli shajara mavjud emas. Asl nusxadan ko'chirma olish XIX asrning 70-yillaridan boshlangan. "Yorliqlar to'plami" o'tgan asrning 60-yillarida A. Juvonmardiyev tarafidan tadqiq etilgan. Ushbu ishda fors tilidagi hujjatlar tarjimasini berishda A. Juvonmardiyev tadqiqotiga murojaat qilindi.

Muqaddas ziyoratgohlar

Yuqorida ta'kidlanganidek, Sulton Sayyid avliyo mozori Koroskonda Eshon mahallasida joylashgan. Maqbara joylashgan qabriston yonida Sulton Sayyid nomidagi masjid ham faoliyat yuritadi [1-rasm].



*1-rasm. Sulton Sayyid masjidining xaritada joylashuvi
va masjidning kirish qismi*

Shuningdek, Koroskonda Alkom acha, Tolmozor (Go‘yo Muham-madxo‘ja) kabi ziyoratgohlar mavjud. XVI-XIX asrlarga oid hujjatlarni o‘rganganimizda, ushbu mozarlarga nazrlar ham berilganligi va ularni mutavalli tasarruf etishi belgilangan. Demak, ushbu davrda ham xonadon nafaqat sayyidlar tabaqasiga mansub bo‘lganligi jihatidan, o‘zlarining amalga oshirgan ishlari uchun ham e‘zozlanishgan. Buni Sulton Sayyidga nisbatan avliyo nisbasini ishlatilishida ham ko‘rishimiz mumkin. Aholi tomonidan ushbu xonadon vakillarini hurmat qilish, ularning maqbaralarini ziyorat qilish an‘anasi hozirda ham davom etib kelmoqda. Hamma sayyidlar ham taqdim qilingan ijtimoiy-iqtisodiy imtiyozlardan foydalana olmagan. Sayyidlar “sahih al-nasab” (insonning ota-onasi vositasida o‘zlashtirgan fazilati: nasab), “hasab” (insonning o‘z hayoti davomida egallangan fazilati: ilm, obro‘) hamda ishonchli va tasdiqdan o‘tgan nasabnomaga egalik nuqtai nazaridan turli ijtimoiy maqomga ega edi (Sul-tonov, 2018, p. 28). Koroskon sayyidlar esa ham “nasab” ham “hasab” ega bo‘lganligi sababli hukmdorlar va aholi tomonidan hurmatda bo‘lgan. Shu sababli hozirgi kunda ham ziyoratgohlar aholi tomonidan e‘zozlanadi.

2023 yilning avgustida Koroskonga qilgan ilmiy safarmizi davomida xonadon vakillaridan Hojiakbar Ahmedov bilan suhbat qilish imkoniga muyassar bo‘ldik. Ular bergan ma‘lumotga ko‘ra XIX asrda Sayyid Jaloliddinxo‘ja boshchiligidagi xonadon a‘zolari maqbara yaqinidagi xonadonlarda istiqomat qilishgan hamda kambag‘al va becholar uchun doimiy xayriya maqsadida qozonlar qo‘yilib ovqat tayyorlangan.


Alkom acha me‘moriy yodgorligi Qo‘qon xoni Xudoyorxonning kotibi bo‘lgan Abdurahmon eshonning onalari bo‘lganligi haqida naql qilinadi (Eraliyev, Ostonaqulov, &

Abdulahatov, 2014, p. 291. Sulton Sayyid avliyo mozori bilan bir qabristonda joylashgan [2, 3-rasmlar].

2-rasm




3-rasm




Navbatdagi ziyoratgoh Sulton Sayyid qabristonidan uncha uzoq bo'lmagan masofada joylashgan [4, 5-rasmlar]. Tolmozor ziyoratgohi 2021 yilgacha qarovsiz holda bo'lgan. 2021 yil Namanganlik tadbirkor tomonidan qayta ta'mirlangan. Tadbirkor bilan daryo.uz muxbiri qilgan suhbatida Koroskon qishlog'i aholisi ta'mir ishlarida faol ishtirok etganligini ta'kidlagan. Bu jihat ham aholining sayyidlar va ziyorat-gohlarga bo'lgan munosabatini yaqqol namoyon etadi.

4-rasm



5-rasm



Qurilish davomida ziyoratgohda dastlab Said Nizomiddin Go'yo Muhammad va u kishining avlodlari dafn etilgan qabrlar usti yopilib, ko'rkam ayvon qurilgan. Keyin tahoratxona, tilovatxona, ehson xonasi va oshxona barpo etilgan. Yonatrofga manzarali daraxtlar va gullar o'tqazilgan, hordiq uchun so'ri va o'rindiqlar o'rnatilgan. Ziyoratgohning oldingi holatini aks ettirgan tasvirlarga asosan shuni ayta olamizki ushbu qurilish davomida ziyoratgohning asli holatini saqlab qolishga yaxshi e'tibor berilmagan (6, 7-rasmlar).

Hojiakbar Ahmedovning bergan ma'lumotlariga ko'ra, ushbu ziyorat-gohda Sayyid Go'yo Muhammadxo'ja va uning besh nafar farzandlari dafn etilgan. Biz hujjatlarda Sayyid Go'yo Muhammadxo'ja nomini bir necha marotaba uchratdik. U Sayyid Fozil Alining (XVI asr) o'g'li bo'lib, unga XVI asr davomida 952/1545, 965/1557-58 yillarda yorliqlar berilgan (O'zMA, 25, 30-y.j.). Sayyid Go'yo Muhammadxo'jadan so'ng birorta sayyidga berilgan yorliqlarda ularning otasi sifatida unga ishora qilinmaydi. Qo'limizda yetarlicha dalillar yo'qligi bois uning nechta farzandi bo'lganligi va ularning nomini aniqlash hozircha imkonsiz.

6-rasm



7-rasm



Hozirgi kunda ushbu uch manzil ziyoratchilarning qadami uzilmaydigan joy hisoblanadi. Bunday manzilgohlarning hududlarda mavjudligi ushbu joylarga ichki va tashqi turizm rivoji yordamida iqtisodiy foyda keltirishi bilan birga ekologiyasi uchun ham yaxshi ta'sir qiladi. Chunki bunday joylar doimiy tozalanadi va obodonlashtiriladi. Bunday qadamjolar atrofida ko'p hollarda ko'p yillik ulkan daraxtlar ekliganligiga guvoh bo'lamiz.

Xulosa

Maqolada Namangan viloyatining Chortoq tumanida joylashgan mu-him ziyoratgohlar, jumladan Sulton Sayyid avliyo, Alkom ocha va Tolmozor kabi muqaddas joylarning tarixiy va diniy ahamiyati yoritildi. Ushbu ziyoratgohlarning mahalliy an'analardagi o'rni, ular bilan

bog'liq bo'lgan urf-odatlar va ularni tadqiq etishda qo'llanilgan ilmiy usullar, jumladan og'zaki tarix va yozma manbalardagi ziyoratgohlarga oid ma'lumotlar tahlil qilindi. Maqolada mazkur ziyoratgohlarning ijtimoiy va diniy hayotdagi o'rni, ular bilan bog'liq tarixiy hujjatlar va mahalliy an'analarga urg'u berildi. Bu kabi qadamjolarini o'rganish nafaqat ularning tarixini yoritishda, balki turizm rivojiga ham hissa qo'shadi. Albatta bunday joylar haqida yozma manbalarda kam ma'lumotlar uchrashi ishda qiyinchilik keltirib chiqaradi, lekin og'zaki tarix metodlaridan foydalangan holda ular haqida ma'lumotlarni tahlil etish, tarixiy kontekstda o'rganish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abashin, S., Yasushi, S., & Minoru, S. (2013). Muslim saints and mausoleums in Central Asia and Xinjiang. Paris: Librairie d'Amérique et d'Orient. Retrieved from https://www.academ-ia.edu/download/45705760/Abashin_mazars001.pdf
2. Abramson, D. M., & Karimov, E. E. (2013). Sacred sites, pro-fane ideologies: Religious pilgrimage and the Uzbek state. In *Everyday Life in Central Asia: Past and Present* (pp. 297-309). Indiana University Press.
3. DeWeese, D. (2002). Sacred history for a Central Asian town: Saints, shrines, and legends of origin. *Revue des Mondes Musulmans et de la Méditerranée*, 95-98, 149-179. Retrieved from <https://journals.openedition.org/remmm/283>
4. Di Puppo, L., & Schmoller, J. (2019). The revival of sacred sites in the Urals: The local and beyond. *Journal of Ethnology and Folkloristics*, 13(2), 65-84. Retrieved from <https://sci-endo.com/pdf/10.2478/jef-2019-0023>
5. Eraliyev, B, Ostonaqulov, I & Abdulhatov, N. (2014). O'zbekiston ziyoratgohlari va qadamjolari: Andijon va Namangan viloyatlari. Toshkent: Turon Zamin Ziyos.
6. Juraev, Z. M., & Masalieva, O. M. (2020). Eleven Ahmad pilgrimage and seal and flag of victory. *The American Journal of Social Science Research*. Retrieved from <https://www.academ-ia.edu/download/105848532/1548.pdf>
7. Juvonmardiyev, A. (1965) XVI-XIX asrlarda Farg'onada yer-suv masalalariga doir. Toshkent.
8. Karimov, E., & Liutikas, D. (2021). Pilgrimage traditions to sacred sites of modern Central Asia. In *Pilgrims: Values and Identities* (pp. 176-192). CABI Publishing. Retrieved from <https://www.cabidigitallibrary.org/doi/abs/10.1079/9781789245653.0176>
9. Lipovsky, I. (1996). The awakening of Central Asian Islam. *Middle Eastern Studies*, 32(3), 1-22. Retrieved from <https://www.tandfonline.com/doi/pdf/10.1080/00263209608701116>
10. Malikov, A. (2021). Sacred lineages in Central Asia: Trans-locality and identity. In

Sacred Lineages and Local Practices in Central Asia (pp. 37-58). OAPEN Library. Retrieved from <https://library.oapen.org/bitstream/handle/20.500.12657/30181/648934.pdf?sequence=1#page=128>

11. Muminov, A. (2013). The sacred places of Central Asia: attempts at their historical and theological interpretation. In Y. Shinmen, M. Sawada, & E. Waite (eds.), *Muslim saints and mausoleums in Central Asia and Xinjiang*. Paris: Librairie d'Amérique et d'Orient. (pp. 5–29).

12. Rakhmatova, F. K. (2021). Study of ancient monuments in Namangan region. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 10(12), 812-818. Retrieved from <https://www.indianjournals.com/ijor.aspx?target=ijor&volume=10&issue=12&article=092>

13. Rybina, L., & Lee, T. J. (2020). Traveler motivation and destination loyalty: Visiting sacred places in Central Asia. *Sustainability*, 12(1), 1-21. Retrieved from <https://www.mdpi.com/2673-5768/2/1/1/pdf>

14. Safarov, O. (2010) *O'zbek xalq og'zaki ijodi*. Toshkent.

15. Sultonov, O'. (2018) *O'rta Osiyoda sayyidlar xonadonining shakllanishi xususida. Imom Buxoriy saboqlari*. 1. 27-30. Retrieved from <https://www.bukhari.uz/wp-content/uploads/2018/09/2018-1son.pdf>

16. Zokirov, B. (2024). The role of national-cultural traditions and intangible cultural heritage in the development of ethno tourism. *Science and innovation*, 3(Special Issue 46), 794-796.

17. Одилов, Б. (2024). Некоторые комментарии о возможностях развития этнотуризма (на примере наманганской области, янгикурганского района). *Science and innovation*, 3(Special Issue 46), 507-510. 507-510.